

**PROFESSIONAL TA'LIMNING RAQAMLI MALAKA OSHIRISH MUHITIDA
TINGLOVCHILARNING MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATGA TAYYORGARLIGI –
KASBIY TAYYORGARLIKNI RIVOJLANISHI OMILI**

Ro'ziyev Dilshod Ubaydullaevich

Professional ta'limni rivojlantirish instituti

Malaka oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha direktor o'rinbosari

dilshod.rziyev@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqola professional ta'lim tizimini zamon talabiga mos formatda tashkil etish, shaklan va mazmunan mutlaqo yangi, uzluksiz professional ta'lim muassasalari tarmog'ini shakllantirishning yangi paradigmasi belgilangan.

Kalit so'zlar: Professional ta'lim, malaka oshirish, raqamli malaka oshirish muhiti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 6 sentabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5812-son Farmonida yangi professional ta'lim tizimini zamon talabiga mos formatda tashkil etish, shaklan va mazmunan mutlaqo yangi, uzluksiz professional ta'lim muassasalari tarmog'ini shakllantirishning yangi paradigmasi belgilandi.

Bunda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari uchun, xususan, tadbirkorlik, kichik biznes, oilaviy biznes, tomorqa biznesi, qurilish, xizmat ko'rsatish, chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, baliqchilik kabi tez sur'atlarda ravnaq topayotgan sohalar uchun 200 dan ortiq ishchi kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlanishi ko'zda tutildi [1].

Mamlakatimizda malaka oshirishning yangi 18 ta modullari joriy qilinib, pedagogika tamoyillaridan androgogika tamoyillariga o'tildi. Malaka oshirishga kelgan tinglovchilar uchun ta'limni innovatsion rivojlantirishga doir 17 ta taqdimotlar tayyorlanib, taqdim etildi.

Malaka oshirish tizimini takomillashtirish uchun **quyidagilar zarur:**

pedagogik kadrlar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimiga yangi o'quv va axborot texnologiyalarini, shuningdek, innovatsion dasturlarning natijalarini joriy etish, yuqori darajadagi nazariy va amaliy bilimlarni, kasbiy mahorat va kompetentlikni ta'minlaydigan zamonaviy jihozlangan korxonalar bazasidan keng foydalanish;

tashkiliy strukturani takomillashtirishni ta'minlash, professional ta'lim tizimining boshqaruv va pedagogik kadrlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha yagona markazlashgan institutni tashkil etish;

o'rnatilgan davlat talablariga muvofiq, malaka oshirish kurslarini tugatgandan so'ng pedagogik kadrlarga tegishli malakaviy toifalarni berish tartibini joriy etish [2].

Malaka oshirishni uch yo'nalishda tashkil etish:

a) kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha rejalashtirilgan kurslarni tashkil etish,

b) uzluksiz malaka oshirishni tashkil etish (videokonferensiyalar, seminarlar, masofaviy o'qitish va boshq.),

v) malaka oshirishning qisqa muddatli kurslarini tashkil etish;

pedagogik kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashning samarali shakllarini (masofaviy o'qitish, "Ustoz-shogird", ballarni yig'ish asosida individual malaka oshirish va boshq.) hisobga olgan holda yangi shakllari va usullarini joriy etishni amalga oshirish; ixtisoslik va maxsus fanlarning o'qituvchilarini, shuningdek ishlab chiqarish ta'limi ustalarini ularning amaliy mashg'ulotlari, mustaqil ishlari hajmini oshirish, dasturlarni individualizatsiyalash, shuningdek bilimlarni baholash tizimini rivojlantirish orqali davlat talablarini, o'quv rejalarini va malaka oshirish dasturlarini takomillashtirishni va qayta tayyorlashni tashkil etish [3].

Professional ta'limning raqamli malaka oshirish muhitini tashkil etishning maqsadi malaka oshirish jarayoniga raqamli va telekommunikatsion texnologiyalarni qo'llash hisobiga tinglovchilarning kasbiy tayyorgarligini uzluksiz rivojlantirishdan iborat. Ushbu muammolarni hal qilish doirasida raqamli texnologiyalar va axborotlashtirish vositalarini bir tizimga birlashtirishning pedagogik, metodik va texnologik asoslarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan tadqiqotlar o'tkazish lozim. Bunday tizim sifatida professional ta'limning raqamli malaka oshirish muhiti taklif qilinishi mumkin [4].

Professional ta'limning raqamli malaka oshirish muhiti - bu malaka oshirishda ta'limiy axborotlarni o'zlashtirish va tezkorlik bilan almashishni ta'minlovchi vosita hisoblanadi. Ushbu muhit asosida tinglovchilarni bir-birini tushunishga, o'zgaralar fikrini hurmat qilishga, o'z fikrini erkin bayon qilishga va birgalikda muammolarni hal etishga o'rgatishga imkoniyat yaratiladi. Natijada yagona malaka oshirish muhitiga kirib boriladi.

Professional ta'limning raqamli malaka oshirish muhitini samarali tashkil etish uchun quyidagilar e'tiborga olinishi zarur: qo'yilgan muammoni yechish uchun tabiiy, fizik, ijtimoiy va boshqa hodisalar ustidan ko'p, tizimli, bir martalik yoki uzoq muddatli kuzatish, turli mintaqalardan ma'lumotlar to'plash; turli joylarda yuzaga keladigan hodisalar, dalillar, voqealarning aniq tendensiyasini aniqlash uchun taqqoslab o'rganish, qarorlar qabul qilish va takliflar ishlab chiqish; tarmoq ishtirokchilarining madaniy, etnik, geografik shartlari o'rtasidagi farqlarni hisobga olgan holda har bir muammo yoki masalani yechish yo'llarining (alternativ yoki turli usullarini) samaradorligini taqqoslab o'rganish; o'ziga xos madaniy, an'anaviy va boshqa xususiyatlarni hisobga olgan holda ijtimoiy va madaniy qarashlarni qiyosiy tahlil qilish; birgalikda ma'lum bir muammoni hamkorlikda tadqiq qilish sharti bilan biror bir (amaliy, ijodiy, ilmiy va boshqa) ijodiy g'oyani ishlab chiqish; malaka oshirish muammolarni o'rganish va hal etish bo'yicha musobaqalar o'tkazish va bunda yuzaga

keladigan muammoli vaziyatlarni madaniy, malaka oshirishdagi an'analar boshqa sohalar bilan bog'liq bo'lishiga qaratish [5].

“Raqamli malaka oshirish muhiti” tushunchasini qo'llashning tadqiqot imkoniyatlarini ochish “muhit” tushunchasining ma'nosini aniqlashni talab qiladi.

M.Chernoushekning ishlariga muvofiq, bu tushunchani talqin qilishda ilmiy amaliyotda bir qancha yondashuvlar shakllangan: muhit – makon va zamonda aniq belgilangan va qayd etilgan chegaralarga ega emas; muhit to'g'risidagi axborotni biz turli sezgi organlaridan olingan ma'lumotlarini qo'shish va kelishish yo'li bilan olamiz; muhit to'g'risidagi axborot bir xil emas, unda yadroli bosh qismni ham, atrofdagi birikmalarni ham ajratish mumkin; muhitdoimo biz anglagan holda ro'yhatdan o'tkazishimiz, qayta ishlashimiz va tushunishimiz mumkin bo'lgandan ko'proq axborotni o'z ichiga oladi; muhit inson tomonidan uning amaliy faoliyati bilan qabo'l qilinadi; har qanday muhit jismoniy va boshqa xususiyatlari bilan birga psixologik va ramziy qiymatlarga ega; muhit bir butun ko'rinishda ta'sir etadi¹.


Raqamli malaka oshirish muhiti nazariy yadrosi – pedagogika fanining yangi yo'nalishi bo'lib, raqamli malaka oshirish muhiti yangilanishga yo'naltirilganlik mohiyatidan kelib chiqib, pedagogik jarayonlarni tadqiq qiladi. Shuning uchun an'anaviy malaka oshirish jarayoniga u yoki bu shaklda yangi pedagogik tizimni kiritish ko'p hollarda samarasizdir. Shu bois yangi sifat tuzilmasiga, tizimni tashkil etishning yangi mezonlariga ega bo'lgan butunlay yangi didaktik modelni yaratish lozim.

Malaka oshirish jarayonida asosiy e'tiborni professor-o'qituvchi egallaydi. Shu sababli malaka oshirishni sifatli tashkil etish professor-o'qituvchilar tarkibini to'g'ri shakllantirishdan boshlanadi. Savol tug'iladi: professor-o'qituvchi sifatini qanday aniqlash mumkin? Professor-o'qituvchi nafaqat tinglovchilarga bilim beradi, u kadrlar shaxsini, dunyoqarashini va ma'naviyatini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu sababli professor-o'qituvchi sifati majmuaviy tushuncha bo'lib, u asosan quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- kompetentlik darajasi – aniq fan va amaliyot sohasi bo'yicha yuqori bilim va tajribaga ega bo'lishi;
- professor-o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullanishga qobiliyat va ishtiyoqning mavjudligi;
- ko'zatuvchanlik – tinglovchilardagi qobiliyatlarni va alohida xususiyatlarni tez ilg'ab olish;
- tashqi va ichki muhit bilan aloqa o'rnatish qobiliyati;
- o'z sohasi bo'yicha tanilganligi, mavqei;
- ilmiy –tadqiqot sohasidagi faolligi;
- ilmiy maktabining mavjudligi [6].

Tinglovchilarni professional ta'lim malaka oshirish muhitida mustaqil ishlashi sifati professor-o'qituvchi tomonidan uning tashkil etish metodikasini ishlab chiqilishi, tayyorlanishi va amalga oshirilishi va tinglovchilar tomonidan uning bajarilishi sifati bilan ta'minlanadi (1-rasm).

mumkin.



1-rasm. Raqamli malaka oshirish muhitida tinglovchilarning mustaqil ishlash sifati tuzilmasi

Ochiq raqamli malaka oshirish muhitida tashkil etiladigan professional ta'limda professor-o'qituvchining vazifalari birmuncha o'zgaradi. Chunki ochiq malaka oshirish masofadan boshqarishga asoslangan bo'lib, unda professor-o'qituvchi va tinglovchi o'rtasida ma'lum masofaviy oraliq bo'ladi. Bunda professor-o'qituvchi malaka oshirish jarayonini muvofiqlashtirishi, maslahatlar berishi, mustaqil o'quv faoliyatga rahbarlik qilishi, malaka oshirish kursini takomillashtirishi va o'z malakasini oshirish ustida ishlashi talab etiladi. Ochiq malaka oshirish muhitida malaka oshirish jarayoni yuqori texnologiyaga asoslangan bo'lib, unda raqamli va telekommunikatsiyaning yutuqlaridan keng foydalaniladi. Professor-o'qituvchi sifatini baholash uchun yuqorida tavsiya etilgan ko'rsatkichlar sonli baholanmaydigan omillar hisoblanadi. Jumladan, kompetentlik darajasini professor-o'qituvchining tayanch ma'lumoti, ilmiy darajasi va unvoni, pedagogik staji, aniq soha bo'yicha amaliy tajribasi orqali baholash mumkin.

Tadqiqotimiz mavzusiga doir mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlarini o'rganish natijasi shuni ko'rsatadiki, tinglovchilarni raqamli professional malaka oshirish muhitida mustaqil

o'quv faoliyatiga tayyolash bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari yetarli darajada va ahamiyatga molikdir. Lekin tinglovchilarni mustaqil ishlarini tashkillashtirish asosida kasbiy kompetensiyalarini shallantirishga yetarlicha ahamiyat berilmagan va hozirgi global vaziyatni inobatga olgan holda raqamli malaka oshirish muhitida mustaqil o'quv faoliyatga tayyorgarlikni rivojlantirish asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari yakunlanmagan.

Ilm-fan va raqamli texnologiyalari konvergensiya professional ta'limni rivojlanishining yangi bosqichini belgilab berdi, bunda uning tushunchalar apparati kengayishini, pedagogikada yuzaga kelayotgan transfer-integrativ hududlar, qadriyatlar va malaka oshirish mazmunini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Malaka oshirish jarayonlari integratsiyasiga bo'lgan ehtiyoj ochiq malaka oshirish muhitini shakllantirishni taqozo etadi, u quyidagilarga imkon beradi: o'quv jarayonini malaka oshirish muassasasidan tashqariga olib chiqish, masofaviy malaka oshirishni qo'llab-quvvatlash; yirik malaka oshirish konsorsiumlarini barpo etish; raqamli malaka oshirish resurslari global kutubxonalarini yaratish; tinglovchilarning global axborot makonidagi yangicha ish sharoitiga moslashuvini ta'minlash. Shunga ko'ra, professional ta'limda malaka oshirish jarayonida malakali kadrlarni tayyorlashda amaldagi malaka oshirish yondashuvlarini o'zgartirish, mustaqil o'quv faoliyatga tayyorgarlikni rivojlantirish orqali mantiqiy tafakkur va kasbiy muammolarga yechim topishda zaruriy kompetensiyalarni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi [7].

Shu sababli tinglovchilarni professional ta'limning raqamli malaka oshirish muhitida mustaqil o'quv faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish ularning kasbiy faoliyat turlariga tayyorgarligini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Djo'raev R.X. Ta'limda interfaol texnologiyalar. – Toshkent, 2010.
2. Hamidov J.A., Murodova A.Y. (2023) Virtual ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari. Science and innovations, 2023/2, 182-189 pp.
3. Murodova A.Y. (2023) Virtual ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatiga tayyorlashning tashkiliy-tuzilmaviy modelini yaratish. "Zamonaviy ta'limni raqamlashtirish: muammo va yechimlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. O'zDJTU. 188-191 betlar.
4. Murodova A. B. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY LAYOQATLARIN SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK O'ZIGA XOSLIKLARI //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 5. – S. 259-263.
5. Hamidov J., Muradova A. TECHNOLOGY FOR DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL AND TECHNICAL COMPONENTS OF FUTURE ENGINEERS THROUGH VIRTUAL EDUCATIONAL TECHNOLOGY.

6. Muradova A. TECHNOLOGY OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL AND TECHNICAL COMPONENT OF FUTURE ENGINEERS BY MEANS OF VIRTUAL EDUCATION TECHNOLOGY //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B2. – S. 306-311.
7. Abdurasulovich H.J., Qizi M. A. Y. VIRTUAL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPITENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNINGNING NAZARIY ASOSLARI //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. Special Issue 10. – S. 182-189.